

Jonajon O‘zbekiston



O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rtasida, yirik Amudaryo va Sirdaryo daryolari oralig‘ida joylashgan.

Ushbu hududda o‘rnashgan xalqlarning tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Bu zamin, tarixchilar ta‘biri bilan aytganda, Sharqdagi eng qadimiy tamaddunlardan* birining vatani hisoblanadi.

O‘zbekiston tarixi – buyuk hukmdorlar, xalqlar, sarkardalar va olimlar tarixi. U, shuningdek, Markaziy Osiyoda qad rostlagan eng go‘zal shaharlar hamda o‘z Vatanini chin qalbdan sevgan insonlar tarixi hamdir.

Asrlar davomida Amudaryo va Sirdaryo vohalarida odamlar yashab, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi muhtasham shaharlarni barpo etishgan. Ular jangari qabilalar tomonidan ko‘p martalab vayron qilingan bo‘lsa-da, mehnatkash insonlar ularni qayta tiklab, yanada go‘zalroq ko‘rinishga keltirishgan.

Bu zamin Osiyo va Yevropani bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasi bo‘lgan. Bu yerning bozorlarida hunarmandlar mehnat qilishgan, ular yaratgan noyob san‘at durdonalari Buyuk Ipak yo‘li orqali Yevropa hamda Osiyoning eng olis go‘shalarigacha yetib borgan.



Vatanimizning boy tarixi ming yillar burungi davrlarga borib taqaladi. Arxeologlar* tomonidan qadimiy shaharlar xarobalari topilib, o‘rganilmoqda. Qazishmalar chog‘ida mehnat qurollari, idish-tovoqlar va taqinchoqlar topilmoqda.

Mustahkam va rivojlangan davlat barpo etish – O‘zbekiston hukumati va xalqi oldida turgan asosiy vazifa.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyot, sanoat, ta’lim va madaniyatni rivojlantirishda ulkan qadamlar tashlayotgan mamlakatga aylangan. Siz-chi, o‘z mamlakatingiz uchun nimalar qila olasiz?



tamaddun – rivojlangan jamiyat, moddiy va ma’naviy madaniyat

arxeolog – qadimiy manzilgohlarni qazish va o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi olim



1. Davlatimiz qayerda joylashgan?
2. Qadim zamonlardan beri bu yerda yashagan insonlar nimalar bilan shug‘ullanishgan?
3. Arxeolog kasbi nega kerak?
4. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, qanchalik o‘zgardi?



Matnni o‘qing va mazmunini gapirib berishga tayyorlaning.

